

**NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR TURLARI, IYERARXIYASI
HAMDA ULARNING AMAL QILISH TARTIBI**

Muxammadova Marjona Zavqiy qizi

O'zbekiston Milliy universiteti

Yurisprudensiya: biznes huquqi yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning turlari, ularning huquqiy kuchiga ko'ra iyerarxik tizimi hamda amal qilish muddati, hududi va subyektlari doirasida qanday tartibda kuchga kirishi masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro hujjatlar va milliy qonunlar o'rtasidagi ustuvorlik tamoyili ham yoritilgan. Maqolada qonunchilik texnikasi, huquqiy aniqlik va qonun ustuvorligi prinsipi asosida normativ-huquqiy hujjatlarning ahamiyati ilmiy nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: normativ-huquqiy hujjat, huquqiy kuch, qonun, farmon, qaror, kodeks, iyerarxiya, amal qilish muddati, qonun ustuvorligi.

Annotation: This article analyzes the types of normative legal acts in the Republic of Uzbekistan, their legal hierarchy based on legal force, and the procedures for their application in terms of duration, territory, and subjects. It also highlights the principle of supremacy between international treaties and national legislation. The paper discusses the significance of legal drafting, legal clarity, and the rule of law in the creation and enforcement of normative legal acts.

Keywords: normative legal act, legal force, law, decree, decision, code, hierarchy, validity period, rule of law.

Аннотация: В статье рассматриваются виды нормативно-правовых актов, действующих в Республике Узбекистан, их иерархия по юридической силе, а также порядок вступления в силу и действия во времени, на территории и по кругу лиц. Освещаются вопросы соотношения международных договоров и национального законодательства. Особое внимание уделяется значению

законодательной техники, юридической определенности и принципу верховенства закона.

Ключевые слова: нормативно-правовой акт, юридическая сила, закон, указ, постановление, кодекс, иерархия, срок действия, верховенство закона.

Kirish. Har bir huquqiy demokratik davlatda davlat boshqaruvining samaradorligi, ijtimoiy barqarorlik va qonuniylikni ta'minlashdagi asosiy vositalardan biri bu – normativ-huquqiy hujjatlar tizimidir. Aynan shu hujjatlar jamiyatda yuzaga keladigan ko'plab ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat organlari va mansabdor shaxslarning huquqiy maqomi, ularning huquq va majburiyatlarini aniqlashtirib beradi. Shuningdek, bu hujjatlar davlat hokimiyatining huquqiy asosda amalga oshirilishini belgilovchi tayanch vosita sanaladi.

Bugungi globallashuv va tezkor huquqiy islohotlar sharoitida normativ-huquqiy hujjatlarning aniq va tizimli ishlab chiqilishi, huquqiy kuchi bo'yicha to'g'ri iyerarxiyaga joylashtirilishi, ular kimlarga, qayerda va qachongacha tatbiq etilishi aniq belgilangan bo'lishi har qachongidan ham muhimroq masalaga aylanmoqda. Chunki hujjatlar orasidagi qarama-qarshiliklar, iyerarxiya va amal qilish doirasi aniq bo'lmagan hollarda huquqni qo'llashda adolatsizlik, chalkashlik, hattoki huquqbuzarlik holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlar tizimi ham isloh etilib, ularning qonunchilikdagi o'rni, huquqiy kuchi va amal qilish tartibi borasida yagona yondashuv shakllantirilmoqda. Konstitutsiya, qonunlar, Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari va boshqa idoraviy hujjatlar o'rtasidagi huquqiy nisbatni belgilash, bu hujjatlarning amal qilish muddatlari va hududiy doirasini aniqlash, shuningdek xalqaro shartnomalar bilan milliy hujjatlar o'rtasidagi ustuvorlikni tartibga solish davlatning huquqiy siyosatida alohida o'rin tutadi.

Mazkur maqolada normativ-huquqiy hujjatlarning turlari, ularning huquqiy kuchiga ko'ra iyerarxiyasi hamda amal qilishining vaqt, hudud va shaxs doirasidagi tartibi huquq nazariyasi asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu hujjatlar tuzilishining qonunchilik texnikasi, yuridik aniqlik va huquqiy barqarorlikka qanday ta'sir ko'rsatishi masalalari ham ilmiy nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi.

Normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasiga ta'rif O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunining 3-moddasida berib o'tilgan. Unga ko'ra, normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.¹

Normativ-huquqiy hujjatlar — vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslarning umummajburiy ko'rsatmasi. Ularda huquq normalari (qonun, kodeks, farmon, qaror, yo'riqnoma va boshqalar) o'rnatiladi, o'zgartiriladi va bekor qilinadi. Normativ-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasida huquqning asosiy manbaidir.²

Normativ-huquqiy hujjatlar o'z o'rnida muayyan belgilariga ega bo'lib, ular quyidagilardan tashkil topgan:

- huquqiy normalarni mustahkamlaydi, rasmiylashtiradi;
- belgilangan qoidalarining mazmunini bayon etadi;
- belgilangan normalarga umummajburiy tus beradi.³

O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar o'z o'rnida muayyan turlarga bo'linadi va asosan, ular qabul qiladigan subyetlariga va yuridik kuchiga ko'ra farqlanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni tasniflash turli asoslar, ya'ni, huquqiy tartibga solish predmeti yoki tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlarning turi, normativ

¹ O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonuni

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Normativ-huquqiy_hujjatlar

³ O. Karimova, N. Ismatova, Sh. Sariqov, O. Amanova "O'zbekiston davlati va huquqi asoslari" darslik "Huquq va Jamiyat" nashriyoti Toshkent- 2019- 108-bet

hujjat amal qiladigan hudud, ularning yuridik kuchi, mazmuni, nomlanishi, amal qilish xususiyati, norma ijodkorligi subyektlari doirasi nuqtai nazaridan amalga oshiriladi.

Normativ-huquqiy hujjatlar muayyan bir tizim bo'lib, ushbu tizim ularning yuridik kuchiga asoslangan holda tashkil topadi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarning farqi quyidagi uchta jihat bilan bog'liq: normativ-huquqiy hujjatlar tomonidan hal etiladigan masalalarning mazmuni va xilma xilligi, yuridik tabiati yoki yuridik kuchiga ko'ra bir-biridan farq qilishi, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayoni va tartibining turlichaligi. O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasida normativ-huquqiy hujjatlarning quyidagi turlari ko'rsatib o'tilgan: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; O'zbekiston Respublikasining qonunlari; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari; vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari; mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.⁴

Normativ-huquqiy hujjatlarning turga bo'linishi qonun va qonunosti hujjatlarining yuridik kuchini aniqlab olishda muhim hisoblanadi. Agarda ular o'rtasida ziddiyatlar yuzaga keladigan bo'lsa, aynan ularning iyerarxiyada joylashgan o'rniga qarab ushbu ziddiyatlarga yechim topish mumkin. Bundan tashqari, huquqiy munosabatlar jarayonida tomonlar o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelib qolganda bir xil maqomdagi normativ- huquqiy hujjatlar o'rtasida tafovutlar kelib chiqadigan bo'lsa, ushbu hujjatlarning qabul qilingan vaqti muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi. Ya'ni qaysi bir hujjat eng so'ngida qabul qilingan bo'lsa, aynan o'sha hujjat munosabatlarni tartibga solishda vakolatli organ yoki mansabdor shaxs tomonidan qo'llaniladi. Xuddi shunday ziddiyatlar va kelishmovchiliklarning oldini olish uchun normativ-huquqiy hujjatlarning turlarga bo'linishi muhim hisoblanadi.

⁴ Sh. A. Saydullayev "Davlat va huquq nazariyasi" darslik. TOSHKENT «Yuridik adabiyotlar publish» 2021

Normativ-huquqiy hujjatlar o'zining quyidagi uch xususiyati bilan ijtimoiy normalarning boshqa turlaridan ajralib turadi: 1) normativ-huquqiy hujjatlar vakolatli davlat organlari tomonidan yaratilib, barcha uchun umumiy majburiy qoidalarini o'rnatadi, o'zgartiradi (takomillashtiradi) yoki bekor qiladi; 2) ularda huquqiy qoidaning mazmuni, ya'ni huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va burchlari ifoda etiladi; 3) normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan qoidalar bajarilmagan yoki buzilgan taqdirda muayyan huquqiy oqibatlar kelib chiqadi, qoida bo'yicha, davlatning majburlov kuchi ishga solinadi. Yuridik ustqurma murakkab va serqirra bo'lganligi sababli normativhuquqiy hujjatlar turli mezonlar bo'yicha turkumlanishi (tasnif qilinishi) mumkin. Bunday mezonlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

– huquqiy tartibga solish predmeti yoki tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlarning turi;

- huquq ijod etuvchi subyekt;
- huquqiy hujjatning yuridik kuchi;
- huquqiy hujjat amal qiladigan hudud;
- huquqiy-normativ hujjatning yuridik nomlanishi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni turkumlash usullari, uslublari va yo'llari ham turlichadir. Turkumlashning juda keng tarqalgan ilmiy usullari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

alifboli-predmetli ko'rsatkichlar;

iyerarxiyaga (pog'onali mutanosiblikka) asoslangan turkumlash, u oddiy va o'nliklar bo'yicha bo'linishi mumkin.⁵

Normativ-huquqiy hujjatlarning amal qilish tartibiga to'xtaladigan bo'lsak, uning shaxslar, vaqt hamda hudud bo'yicha amal qilish tartibi qonunchilik hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunida ko'rsatib o'tilgan.

⁵ Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018.

Normativ-huquqiy hujjatning makon bo'yicha amal qilishi normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organning yurisdiksiyasi bilan belgilanadi.

Normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ uning makon bo'yicha amal qilish doirasini cheklab qo'yishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjat, agar uning matnida boshqacha izoh berilmagan bo'lsa, muddatsiz amal qiladi.

Normativ-huquqiy hujjatning amal qilish muddati butun hujjat yoki uning bir qismi uchun belgilanishi mumkin. Bunday holda normativ-huquqiy hujjat yoxud uning bir qismi qaysi muddatga yoki qanday hodisa yuz berguniga qadar o'z kuchini saqlab qolishi ko'rsatilishi kerak.

Normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ belgilangan muddat tugaguniga qadar yoki hodisa yuz berguniga qadar hujjatning yoki uning bir qismining amal qilishini yangi muddatga, boshqa hodisa yuz berguniga qadar uzaytirish to'g'risida yoxud normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka, o'tkazilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlariga, jamiyatdagi barqaror huquqiy munosabatlarga muvofiq bo'lgan taqdirda normativ-huquqiy hujjatga (uning qismiga) muddatsiz tus berish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatning amal qilishi O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va yuridik shaxslariga, shuningdek o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirganda chet el yuridik shaxslariga, O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, tatbiq etiladi.⁶

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, normativ-huquqiy hujjatlar huquq tizimining asosiy manbai bo'lib, davlat va jamiyat hayotida huquqiy tartibotning barqarorligini ta'minlovchi asosiy vosita hisoblanadi. Har bir huquqiy demokratik davlatda qonun ustuvorligini ta'minlash, huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini qonuniy asosda olib borish, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarni

⁶ O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonuni

huquqiy jihatdan aniq belgilash uchun normativ-huquqiy hujjatlar turlarini to'g'ri farqlash, ularning iyerarxiyasini belgilash va amal qilish tartibini chuqur o'rganish zarurdir. O'zbekiston Respublikasida normativ-huquqiy hujjatlar tizimi aniq yuridik asoslar bilan belgilangan bo'lib, Konstitutsiya bosh hujjat sifatida barcha boshqa normativ hujjatlar uchun zamin yaratadi. Qonunlar, kodekslar, Prezident farmon va qarorlari, Hukumat qarorlari, idoraviy normativ hujjatlar o'zaro muvofiqlashtirilgan tarzda amal qiladi. Har bir normativ-huquqiy hujjat turining huquqiy kuchi, ta'sir doirasi va amal qilish muddati yuridik texnika hamda qonunchilik nazariyasi doirasida qat'iy belgilab qo'yilgan.

Yakuniy xulosa shuki, normativ-huquqiy hujjatlarning turlari va iyerarxiyasi to'g'risidagi bilimlar nafaqat yuridik soha vakillari, balki har bir fuqaro uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki bu bilimlar fuqarolarning o'z huquq va majburiyatlarini to'g'ri anglab yetishiga, huquqiy ong va madaniyatning yuksalishiga hamda jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonuni
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Normativ-huquqiy_hujjatlar
3. O. Karimova, N. Ismatova, Sh. Sariqov, O. Amanova "O'zbekiston davlati va huquqi asoslari" darslik "Huquq va Jamiyat" nashriyoti Toshkent- 2019- 108-bet
4. Sh. A. Saydullayev "Davlat va huquq nazariyasi" darslik. TOSHKENT «Yuridik adabiyotlar publish» 2021
5. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018.